

**TALABALARDA ANALITIK FIKRLASH KO'NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI****Urolov G'ulom Berdiyov o'g'li**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

[gulomurolov95@gmail.com](mailto:gulomurolov95@gmail.com)

**Annotatsiya.** Analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda biror mavzu buyicha sodir bo'ladigan qarama-qarshiliklarni tizimli hal qilish tushuniladi. Analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanik jarayon emas, balki jonli, erkin faoliyatdir. Maqolada talabalarda analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Bilim, mutaxassis, madaniyat, kasb, mantiq, tafakkur, хотира, diqqat, tasavvur, idrok.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ  
ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У  
УЧАЩИХСЯ**

**Аннотация.** Под формированием навыков аналитического мышления понимается систематическое разрешение противоречий, возникающих по данной теме. Формирование навыков аналитического мышления – это не механический процесс, а живая, свободная деятельность. В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты формирования навыков аналитического мышления у учащихся.

**Ключевые слова:** Знание, специалист, культура, профессия, логика, мышление, память, внимание, воображение, восприятие.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING  
ANALYTICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS**

**Abstract.** Developing analytical thinking skills involves systematically resolving contradictions that arise on a given topic. Developing analytical thinking skills is not a mechanical process, but a living, free activity. This article examines the pedagogical and psychological aspects of developing analytical thinking skills in students.

**Keywords:** Knowledge, specialist, culture, profession, logic, thinking, memory, attention, imagination, perception.

**Kirish.** Bugungi axborot davrida barcha soha mutaxassislaridan yangi hayot va kasbiy sharoitlarga moslashish omili sifatida analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Axborot odamlarga hayot subyekti sifatida ta'sir ko'rsatishning, ularning ijtimoiy va individual ongini, shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, xulq-atvorini va faoliyatini rivojlantirishning universal vositasiga aylandi. Axborotning qadriyat, fan va madaniyat mahsuli sifatidagi ko'p funksiyali maqsadi oshdi, bu esa bilim subyektida shaxsning ta'lim sifati va bilimdonligi mezon sifatida, ayniqsa kasbiy tayyorgarlik nuqtayi nazaridan, unga nisbatan analitik munosabatni uyg'otadi. Bularning barchasi har qanday faoliyat sohasidagi mutaxassisdan har qanday ma'lumotni tanqidiy tahlilga duchor qila olishini va xohlashini talab qiladi, bu esa rivojlangan analitik fikrlashni talab qiladi.

Analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'limning maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shaxsning axborot madaniyatining bir qismi sifatida analitik fikrlash talabalarga dunyoda, kasbda va insoniy munosabatlarda optimal yo'nalishni ta'minlaydi, ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiradi va hayotning murakkab, tanqidiy vaziyatlarida yetarli xulq-atvor va faoliyat shaklini rivojlantiradi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda biror mavzu buyicha sodir bo'ladigan qarama-qarshiliklarni tizimli hal qilish tushuniladi. Analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanik jarayon emas, balki jonli, erkin faoliyatdir. Inson muammoni hal qilish jarayonida mantiqiy operatsiyalarning tuzilishini tizimli kuzatish jarayonida aniqlab bilymaydi. Uni aniqlashda maxsus tahlil talab qilinadi. Analitik fikrlaydigan sub'ekt bu jarayonda ikkinchi darajali elementlarni qoldirib, ob'ekt-topshiriqning dinamik tuzilishini bilishga intiladi.

Amerikalik olim D.Kluster analitik (tanqidiy) fikrlashning 5 ta ko'rsatkichini ko'rsatgan: 1) fikrlash erkin va mustaqil bo'lishi kerak; 2) nazariy bilim va axborotlar fikrlashga undaydi; 3) so'rash va savollar qo'ya olish uquvi va qobiliyati mavjudligi; 4) ishonchli dalillarni keltira olish, o'z fikrlarini va muammoning tanlangan yechimini mantiqan isbotlab bera olish qobiliyati; 5) bunday fikrlash ijtimoiy hisoblanadi, ya'ni, bunday jamiyatda sinovdan o'tadi va silliqlanadi [5]. Analitik (tanqidiy) fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun bo'lajak o'qituvchiga axborotlarni tahlil qilishni o'rgatish kerak. A.L.Tertel "tahlil – bu ob'ektdagi u yoki bu tomonlarini, unsurlarini, o'ziga xosliklarini, aloqalarini, munosabatlarini va boshqa jihatlarni ajrata bilish kerak. Bu - o'rganayotgan ob'ektni u tashkil topgan qismlarga ajratishdir" deb hisoblaydi [8]. V.A.Slastenin "tahlil qobiliyati – bu umumiydan uni tashkil qilgan qismlarini ajratib olish" deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu nafaqat axborotni tahlil qilish, balki sintez ham qilishdir [7].

V.Karimovanning fikriga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida analitik tafakkur talaba uchun omilkor aql-zakovat quroli vazifasini bajaradi [4]. E.G'oziyev tafakkur nafaqat psixologiyaning balki mantiq, falsafa xatto kibernetikaning xam tadqiqot obyektiga aylanganligini, faqat bu fanlar doirasida tafakkur ilmiy muammolarga bog'liq

jihatlardan tadqiq etilishini ta'kidlagan [2]. Olimning fikricha, tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langan xotira, diqqat, tasavvur, idrok kabi boshqa ruxiy jarayonlar bilan uyg'unlikda yuzaga keladi.

Shunday qilib, talabalarda analitik (tanqidiy) fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy muammo – har qanday vaziyatda har qanday axborotni yuqori darajada tahlil qilish, tanqidiy baholash – bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

O.V.Igrakova o'z tadqiqotlarida analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ob'ektiv baholashga intiladi [3]. Analitik fikrlashni shakllantirish jarayonida masalalarni echish uchun ma'lum algoritmlar ishlab chiqiladi. Bu uning keyingi taraqqiyotini oldindan belgilab beradi va tafakkur sub'ektivlik sifatini saqlab qoladi. A.Z.Zak analitik tahlil elementni aniqlash bilan bog'liq b'olib, uning xususiyatlarining o'zgarishi mavjud hodisalarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlaydi [10]. Demak, analitik fikrlaydigan sub'ekt tizimni shakllantiruvchi xususiyatni aniqlash uchun tizimning barcha parametrlarini hisobga olishi kerak bo'ladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Fan sohasida “analitik fikrlash” psixologik atamasi pedagogikaning asosiy toifalari: tarbiya, ta'lim, o'rganish, o'qituvchi va talaba bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillari, jumladan, tahlil tushunchalari va analitik yondashuv: ta'limni fundamentalizatsiya qilish, ta'lim jarayonlarini integratsiyalash va o'rganishni farqlash va individuallashtirish tamoyillari bilan osonlashadi. Bu tamoyillar talabalarning asosiy fikrlarni aniqlash, o'xshashliklar, farqlar, munosabatlar va aloqalarni aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ularning faoliyatda qo'llanilishi uni analitik sifatida tavsiflaydi, uning ishlashi har doim tegishli fikrlash turi bilan belgilanadi.

Ta'lim mazmunini yuqori sifatli o'zlashtirish fanlararo va tematik aloqalarni o'rnatishni, ilmiy terminologiyadan foydalanishni va axborotni tizimlashtirishni talab qiladi, bu esa analitik fikrlashga tayanishni ham talab qiladi.

Talabalarda analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Zamonaviy ta'lim kasbiy faoliyatida o'zining barcha salohiyatini: qobiliyatlarini, tajribasini, foydaliligini va shaxsiy fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan madaniyatli shaxsni rivojlantirish konsepsiyasiga asoslanadi. Zamonaviy, qoniqarli faoliyat uchun barcha mezonlar mutaxassisning axborot va shaxsiy tayyorgarligidan kelib chiqadi. Bu, ayniqsa, insoniyat madaniyati yutuqlari haqida ma'lumotni yosh avlodga yetkazish vazifasi yuklatilgan o'qituvchilar uchun juda muhimdir. Bunday ma'lumotlar doimiy ravishda o'zgarib, kengayib boradi va doimiy tahlil asosida pedagogik tashkilot va ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi kognitiv va kasbiy

o'zaro ta'sirlarning ijodiy rivojlanishi orqali qurilgan axborot va ta'lim tizimini tashkil qiladi.

2. Inson faoliyatidagi axborot maydonining murakkabligi, uning qarama-qarshiliklari va noaniqligi ulkan moddiy va shaxsiy resurslarning yo'qolishiga olib keladi. Aniq kerakli ma'lumotni topish qiyin, uning haqiqati va xolisligini baholash esa yanada qiyinroq. Shuning uchun ilmiy xarajatlarning katta qismi nazariy tadqiqotlar va texnologik takliflarning asosligini baholashga sarflanadi. Fan, iqtisodiyot va siyosatda odamlar ko'pincha shubhali ma'lumotlarga duch kelishadi, bu esa firmalar, korxonalar, butun sanoat tarmoqlarining barbod bo'lishiga va ta'limning yomonlashishiga olib keladi. Har qanday ma'lumotning xolisligini aniqlash muhim kasbiy vazifaga aylanadi.

3. Fanda uzoq vaqtdan beri bo'lajak mutaxassislar, jumladan, o'qituvchilar uchun ixtisoslashtirilgan analitik tayyorgarlikning turli jihatlarini o'rganib kelmoqda. Ta'lim tizimida bu masalani hal qilish uchun barcha zarur shart-sharoitlar - ijtimoiy, psixologik, texnologik va pedagogik - yetuklikka erishildi.

Ijtimoiy shart-sharoitlar ijtimoiy taraqqiyotning: ma'naviy, madaniy va iqtisodiy hayotning kuchayishi, inson munosabatlarining butun tizimini qayta qurish, aholining portlashi, globallashtirish inqirozlari, ijtimoiy falokatlar, axborot inqilobi, inson faoliyatining, birinchi navbatda, kasbiy va individual-ijodiy faoliyatning kuchayishi kabi asosiy xususiyatlarida mavjud.

Psixologik nuqtayi nazardan, bo'lajak mutaxassisning analitik tayyorgarligining asosiy shartlari intellektual madaniyat, ta'lim, kasbiylik, ishga ijodiy yondashuv, eng yuqori fidoyilik va qobiliyat, shuningdek, ishda namoyon bo'ladigan iqtidor va iste'dodni rivojlantirishdir. Uning samaradorligi intellektual to'yinganlik bilan belgilanadi. Har qanday kasb egasi ishlab chiqarish holati va ishlab chiqarish muhitini, biznes va shaxslararo munosabatlarni, korxonalar yoki muassasaning rivojlanish istiqbollari tashxislay olishi kerak. Ular, shuningdek, o'z ishlarini takomillashtirish yo'llarini rejalashtira olishlari, yangi vositalarni samarali joriy etish va texnologik jarayonlarni yangilash uchun sharoit yaratishlari kerak. Bularning barchasi o'qituvchilarga ma'lum bir kasb vakillari sifatida bir xil darajada tegishli. Tadqiqotchilar har qanday mutaxassisning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan intellektual jarayonlarni aniq belgilab berishgan: o'xshashlik, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, tizimlashtirish, tuzilish, modellashtirish, tasniflash va prognozlash [6].

Analitik fikrlash obyektlar va hodisalarni dastlabki, elementar tahlil qilishdan ularni tobora chuqurroq o'rganishgacha rivojlanadi[1]. Tahlil dastlab amaliy darajada (o'rganilayotgan materialning faktik asosini tasdiqlash), keyin birinchi darajali umumlashtirish (faktlarni bir-biri bilan o'zaro bog'lash va ular ichida umumiy asos topish), faktlar, hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni munosabatlar va

tendensiyalar shaklida aniqlash orqali amalga oshiriladi. Analitik fikrlash nafaqat tahlil; bu axborotni sintez qilish, uni tobora yuqori nazariy darajaga ko'tarishdir. Tahlil har doim abstraksiya, umumlashtirish va boshqa aqliy operatsiyalar bilan birgalikda sodir bo'ladi.

4. Analitik fikrlashning shakllanishi shaxsning yaxlit axborot madaniyatining rivojlanishini oldindan belgilab beradi, uning mohiyati axborot vositalari va aqliy operatsiyalar tizimi yordamida hayot muammolarini samarali hal qilish uchun optimal foydalanish maqsadida axborotni tahlil qilish, u bilan ishlash imkoniyati, qobiliyati va ko'nikmasidan iborat.

5. O'qitish va ta'limga bunday yondashuv o'qituvchining shaxsi va o'quvchilarning subyektiv qobiliyatlariga nuqtayi nazarni o'zgartirganligi sababli, shaxsiylashtirilgan yondashuv ta'limning asosiy paradigmasiga aylanadi va jamoatchilik fikri o'qituvchilarni alohida ijtimoiy-kasbiy qatlam sifatida tan oladi.

### **Tahlil va natijalar**

Fikrlash narsa va hodisalarning mohiyati, ular orasidagi muntazam aloqa va munosabatlarni bilish bilan ifodalangan voqelikning vositalashtirilgan va umumlashtirilgan aksi, aqliy faoliyat turidan iborat. Shunday qilib, fikrlashning birinchi xususiyati uning vositachilik xarakteridir. Kishi bevosita, to'g'ridan-to'g'ri bila olmaydigan narsani bilvosita o'rganadi: ba'zi xususiyatlarni boshqalar orqali, noma'lumni ma'lum orqali biladi. Fikrlash har doim hislar, tuyg'ular, g'oyalar va ilgari olingan nazariy bilimlar kabi hissiy tajriba ma'lumotlariga asoslanadi. Fikrlashning ikkinchi xususiyati uning umumlashtirilishidir. Obyektlarning barcha xususiyatlari bir-biri bilan bog'liqligi sababli voqelik obyektlarida umumiy va asosiy bilish sifatida umumlashtirish mumkin. Umumiylik faqat alohida, konkretlikda mavjud va namoyon bo'ladi.

Odamlar nutq, til orqali umumlashtirishini ifodalaydilar. Og'zaki nutq nafaqat bitta obyektga, balki o'xshash obyektlarning butun guruhiga ham tegishli. Umumlashtirish tasvirlarga (tasvirlar va hatto hislar) ham xosdir. Ammo unda har doim ko'rgazmalilik bilan cheklanadi. So'z cheksiz umumlashtirish imkonini beradi. Materiya, harakat, qonun, mohiyat, hodisa, sifat, miqdor va boshqalar haqidagi falsafiy tushunchalar so'z bilan ifodalangan eng keng tarqalgan umumlashmalardir.

Fikrlashning boshqa jarayonlardan farqi shundaki, u deyarli har doim ma'lum bir muammoli vazifani hal qilish va bu vazifa qo'yilgan shartlarni faol ravishda o'zgartirish zarurati bilan bog'liq. Fikrlash idrokdan farqli o'laroq, hissiy chegaradan tashqariga chiqadi, bilim chegaralarini kengaytiradi. Sensor ma'lumotlarga asoslangan fikrlashda ma'lum nazariy va amaliy xulosalar chiqariladi. U borliqni nafaqat alohida narsalar, hodisalar va ularning xususiyatlari ko'rinishida aks ettiradi, balki ular o'rtasida mavjud bo'lgan, ko'pincha shaxsning idrokida bevosita berilmaydigan aloqalarni ham belgilaydi. Narsa va hodisalarning xossalari, ular

orasidagi bog‘lanishlar tafakkurda umumlashgan shaklda, qonunlar, borliqlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Olimlarning ta’kidlashicha, analitik fikrlash alohida psixik jarayon sifatida mavjud emas, u boshqa barcha bilish jarayonlarida idrok, diqqat, tasavvur, xotira, nutq shaklida ko‘rinmas holatda mavjud. Bu jarayonlarning yuqori shakllari, albatta, fikrlash bilan bog‘liq bo‘lib, uning ushbu bilish jarayonlarida ishtirok etish darajasi ularning rivojlanish darajasini belgilaydi.

### **Xulosa va takliflar**

Analitik fikrlash - g‘oyalar harakati, narsalarning mohiyatini yoritishdir. Uning natijasi tasvir emas, balki biror fikr, g‘oyadir. Fikrlash natijasi obyektlar sinfining eng umumiy va muhim belgilarida umumlashtirilgan aks etishi - tushuncha bo‘lishi mumkin.

Yechimlarni izlash ba‘zan juda qiyin, shuning uchun aqliy faoliyat, qoida tariqasida, diqqat va sabr-toqatni talab qiladigan faol faoliyatdir. Haqiqiy fikrlash jarayoni har doim nafaqat bilish, balki hissiy-irodaviy jarayondir. Fikrlashning obyektiv moddiy shakli tildir. Til tufayli odamlarning fikri yo‘qolmaydi, balki bilim tizimi shaklida avloddan-avlodga o‘tadi. Shu bilan birga, fikrlash natijalarini uzatishning qo‘shimcha vositalari mavjud, ular: yorug‘lik va tovush signallari, elektr impulslari, imo-ishoralar va boshqalar. Zamonaviy fan va texnologiya ma’lumotlarni uzatishning universal va iqtisodiy vositasi sifatida an’anaviy belgilardan keng qo‘llaniladi.

Yuqorida aytilganlar analitik fikrlashning ajralmas sharti mantiq qoidalarini bilish degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shunga ko‘ra, fikrlash tuzilishida quyidagi mantiqiy operatsiyalarni ajratish mumkin: taqqoslash, tahlil qilish, sintez qilish, abstraksiyalash va umumlashtirish. Taqqoslash narsalarning o‘ziga xosligini va farqini yoritib beradi. Taqqoslash natijasi, qo‘shimcha ravishda, tasniflash bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha u nazariy va amaliy bilimlarning asosiy shakli sifatida ishlaydi. Narsalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish ularning ichki aloqalari, qonuniyatlari va muhim xususiyatlarini yoritib berishni talab qiladi. Bu tahlil va sintez orqali amalga oshiriladi. Tahlil - bu aqliy yoki amaliy obyektning keyingi taqqoslash bilan uning tarkibiy elementlariga bo‘lishdir. Sintez - analitik berilgan qismlardan bir butunni qurishdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Djadan A.N. Analogiya. Analiz. — M.: Ped. ensiklopediya. Izdaniye. 2-ye izdaniye, tom 1, 33-34 s.
2. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O‘qituvchi.-1990.ova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
3. Igrakova O.V. Formirovaniye analiticheskogo myshleniya u studentov pedagogicheskogo vuza. Slavyansk-na-Kubani, 2006.

4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
5. Kluster D. Chto takoe kriticheskoe myshlenie? // Kriticheskoe myshlenie i novye vidy gramotnosti. M. SGL, 2005. S. 5–13
6. Kuzin D.V. Formirovaniye analiticheskix umeniy uchaщixsya na urokax istorii (na materiale kursov istorii 10 klassa). Avtoreferat diss. na soiskaniye uch. st. k.p.n. Sank-P.-1998
7. Slastenin V.A., Isaev I.F., Miщenko A.I., Shiyanov Ye.N. Pedagogika. M. 2013. 576 s
8. Tertel A. L. Psixologiya. Kurs leksiy. M., 2006.248 s
9. Tixomirov O.K. Psixologiya myshleniya. Moskva: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2002. — 288 s.
10. Zak A.Z. Kak opredelit uroven razvitiya myshleniya shkolnika. – Moskva: Izdatelstvo “Znaniye”, 1982.